

IQTIDORLI O‘QUVCHILARDA SAMARALI KOPING XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH MAMLAKAT INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

L. Yu. Abduqodirova
FarDU o‘qituvchisi

Aziza Sobirova
FarDU talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatni rivojlantirishda inson kapitalining roli, bunda iqtidorli o‘quvchilar alohida ahamiyat kasb etishi ochib berilgan. Iqtidorli o‘quvchilarning inson kapitali sifatini oshirishda ularning samarali koping xulq-atvorini shakllantirishga e‘tibor qaratish, buning uchun ularning psixologik xususiyatlarini, xususan, koping-xulqini o‘rganish maqsadida psixodiagnostik metodlarni yaratish, mavjudlarini o‘quvchilarning yoshi va milliy xususiyatlariga adaptatsiya qilish, shuningdek, psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, iqtidorli o‘quvchilar, intellekt, rivojlanish, qiyin xayotiy vaziyat, stress, koping-xulq, psixodiagnostika, psixokorreksiya.

ABSTRACT

This article reveals the role of human capital in the development of the country, as well as the key role in this belongs to gifted students.

It is concluded that in order to improve the quality of the human capital of gifted students, it is necessary to focus on the formation of effective methods of coping behavior in them, while the development of psychodiagnostic methods for studying their psychological characteristics, in particular coping behavior, adapting existing methods to age-related and national characteristics of students, as well as the development of programs for psychocorrection of coping behavior.

Keywords: human capital, gifted students, intellect, development, difficult life situation, stress, coping behavior, psychodiagnosics, psychocorrection.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda davlat va jamiyat qurilishini takomillastirish, iqtisodiy-ijtimoiy sohani rivojlantirish,



xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish inson kapitalining rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq.

Jahon Taraqqiyot Banki ekspertlarining fikricha, inson kapitali – bu insonlar o‘z hayoti davomida bilim, ko‘nikma va salomatlikka investitsiya qiladigan va to‘playdigan vositalar bo‘lib, bu esa ularga jamiyatning foydali a‘zosi sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkon beradi (<https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/immersive-story/2018/08/03/investing-in-people-to-build-human-capital>).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hindistonlik olim Mahbub ul Haq “Reflection on Human Development” (Mahbub ul Haq 1996) kitobida “Inson kapitali iqtisodiy o‘shishni majmuaviy tarzda qo‘llab-quvvatlovchi instrument bo‘lib, inson kapitali to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq va ushbu kategoriya iqtisodiy o‘shishning son va sifat jihatidan rivojlanishini ta‘minlashi muqarrardir”, — deb yozgan [11].

Yu.A. Korchaginga ko‘ra, inson kapitali – bu professionalizm, intellekt, bilimlar, sifatli va yuksak samarali mehnat va yuksak turmush darajasi demakdir [13]

B.Sh.Usmonov, M.Q.Qodirov, J.D.Eltazarovlar inson kapitali “insoniyatning postindustrial jamiyatga, informatsion va innovatsion texnologiyalar davriga qadam qo‘yishi bilimli va malakali inson kuchiga bo‘lgan talabni mislsiz ravishda yuksaltirdi”, deb ta‘kidlab o‘tganlar [14, 4-b.].

Rossiyalik olim Didenko inson kapitali — bu insonda mujassamlangan iqtisodiy jihatdan qimmatli bilimlar, ko‘nikmalar, motivatsiyalar, uning yangi axborotni idrok etish va ishlab chiqarish qobiliyati [12, 39-b].

Zamonaviy dunyo muammolari inson kapitalini rivojlantirish uchun yanada moslashuvchan va nostandart usullardan foydalanishni taqazo etadi. Bunday usullaridan biri iqtidorli va iste‘dodli yoshlarning tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat. M. Xolmuxamedov inson kapitaliga investitsiyalar haqida gapirib, AQSH tajribasiga e‘tibor qaratgan. Uning fikriga ko‘ra, AQSHdagi xususiy kompaniyalar tomonidan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun sarmoya qilingan 1 dollar, oqibatda 3dan 8 dollargacha daromad olib keladi [16].

Iqtidorli yoshlarni rivojlantirish haqida fikr yuritilar ekan, bu borada O‘zbekistonda kengqamrovli islohotlar amalga oshirilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi. Farmonda “Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g‘oyalari sodiqlik, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash” masalasiga alohida ahamiyat berilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoniga muvofiq 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan[2].

Yoshlarni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida 2019-yilning 12-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son qarori [5]; 2020-yil 23-sentyabrdagi ORQ-637 O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni” [4]; 2021-yil 18-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-sonli qarori [6]; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni [3] qabul qilinganligini ham e’tirof etish lozim.

Bizning fikrimizga ko‘ra esa, agar iqtidorli yoshlarga investitsiya qilinsa, natijada dunyo miqyosida O‘zbekiston fan, san‘at, biznes, siyosat, madaniyat va boshqa sohalarda munosib o‘rnini egallashi, xamda iqtisodiy o‘sishga tezroq erishishi uchun xizmat qilishi mumkin.

Iqtidorli bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda ularning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy moslashuvini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ular betakrorliklari, nostandart fikrlarga ega bo‘lganliklari tufayli, xamda oddiy maktabda differensial ta’limning yo‘qligi, maktabning o‘rtacha o‘quvchiga e’tibor

qaratilishi va koʻzda tutilmagan yoki qabul qilinmagan dasturlarning birlashtirilishi sababli tengdoshlaridan farq qilib, ulardan qobiliyati pastroq oʻquvchilar tomonidan kamsitishlarga duch keladilar. Natijada iqtidorli bolalar boshqalar bilan muloqot qilishda qiynalishi, stress, psixologik qiynchiliklarga uchrashlari mumkin.

Shunday ekan, iqtidorli oʻquvchilarning inson kapitalini rivojlantirish va natijada jamiyatdagi ijobiy oʻzgarishlarga erishish uchun, hayotiy muammolarni samarali yengishga qaratilgan xulq-atvorni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Muammolarni yengishga qaratilgan xulq chet el psixologlari tomonidan “coping” – xulq deb ataladi. Ushbu termin inglizcha “to cope” — “yengish” degan maʼnoga ega boʻlib, uni ilk bor L. Murphy (1962-y.) maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan krizis holatlarni yengib oʻtish xulqini tadqiq etish boʻyicha ilmiy risolasida qoʻllagan [10].

Shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib oʻtish, yaʼni koping – xulq haqidagi nazariya XX asrning ikkinchi yarmida amerikalik psixolog Abraham Maslou tomonidan yaratilgan (1987 y.). Uning nazariyasida “koping-xulq – bu individning hayotiy muammolarni yechishga tayyorgarligini aks etuvchi xulq shakli, maʼlum bir vaziyatga moslashishga yoʻnaltirilgan va emotsional stressni yengib oʻtishda vositani qoʻllashidagi taxminiy shakllangan mahoratdir” deb taʼrif beradi [9].

1966 yilda Lazurus ozining “Psixologik stress va uni yengib oʻtish yollari” kitobini yozgan. Unda Lazurus stress – bu diskomfort yaʼni ehtiyojlar, xohishlar bilan bogʻliq boʻlgan, atrof olamning insonga qoʻyadigan talablari bilan ehtiyojlar nomutanosibliigidir degan fikrni ilgari surgan. Atrof olamni inson individual qabul qilishi bilan bogʻliq boʻlgan holatlar. Aynan individ sodir boʻlgan voqea hodisa, vaziyat va x.kni baholashiga bogʻliq, yaʼni buni u stress holat kabi qabul qiladimi yoki yoq [8].

Iqtidorli bolalarda yengib oʻtuvchi xulq Oʻzbekiston olimlari tomonidan oʻrganilmagan. Ularni asosan chet el olimlari E.Frydenberg, R.Lewis, A.Parsons, C.Pool, T.L. Kryukova, V.D.Saporovskaya, S.A.Xazovalar oʻrganganlar. Eng mashhur tadqiqotlar Avstraliyada E.Frydenberg, R.Lewis, L.Medvedova, G. Villiandlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular Iqtidorli bolalardagi yengib oʻtuvchilarning xulqi turli muammolarni qay tarzda uddalay olishlariga bogʻliqdir deb hisoblashgan. Tadqiqotlar natijasiga koʻra, tengdoshlar bilan muammo, qiynchiliklar yuzaga kelganda ular munosabatlarni ochiq oydin hal qilib olishni maʼqul koʻrishadi. Oilasi bilan bogʻliq boʻlgan qiynchiliklarda esa oʻzlari yolgʻiz qolib, yaxshilab oʻylab hal qilishni maʼqul koʻrishadi. Iqtidorli bolalarda oʻzlarini tengdoshlariga qaraganda

turli muammoga, qiyin vaziyatga tushib qolganda zararli odatlar (spirtli ichimliklar, narkotik moddalari)ga berilib ketishga moyillik ancha kam. Ular qiyin muammoli vaziyatlarga tushib qolganlarida zararli odatlarga berilmay, balki ozlarini qiziqtirgan ish faoliyatlari bilan mashgʻul boʻlib, ishga oʻta berilib ketadilar. Bu yoʻl bilan ular muammodan chalgʻishga harakat qiladilar. Koʻplab psixologlar iqtidorli, kuchli qobiliyatga ega boʻlgan bolalarning aksariyati qiyin muammoli ahvoldaliklarida oʻzlarini umuman ojiz, yordamga muhtoj ekanliklarini his qilmaydilar deb taʼkidlab oʻtishgan.

E.Frydenberg, R.Lyuvislarning aniqlashlaricha, avstraliyalik yuqori sinf iqtidorli oʻquvchilari koʻproq yuqori natijalarga, yutuqlarga erishish uchun va muammolarini yechishda koʻproq dam olish, chalgʻimaslik, xayollarga kamroq berilib orzu qilmaslikka, charchoqlarini yechish uchun turli (alkogol, chekish) yoʻllardan foydalanishga oʻzlarini yoʻnaltirishar ekan [7]. Turli muammoli vaziyatlar, oʻz qiyinchiliklarini yengolmay yechimiga qiynaladilar va yordam soʻrab doʻstlariga murojaat qilishar ekan.

Rossiyalik olim S.A.Xazovaning tadqiqotlariga koʻra, iqtidorli yuqori sinf oʻquvchilari tengdoshlari kabi yosh davriga xos boʻlgan barcha ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarni kechirishadi. Ushbu qiyinchiliklar qaysi sohada yuzaga kelayotganiga, kommunikativ qobiliyatining darajasiga va shaxs xususiyatiga bogʻliqdir. Shu bilan birgalikda qiyinchiliklar yuzaga kelishi ota-ona, oʻqituvchining pozitsiyasiga bogʻliqdir. Tengdoshlari bilan munosabatlar iqtidorli oʻquvchilarni oʻzlarini nostandart tarzda namoyon qilganliklari bilan bogʻliqdir [15]. Ularni sotsiometrik mavqesi boshqalarga nisbatan yuqori. Iqtidorli oʻquvchilardagi eng katta qiyinchilik tengdoshlari bilan bogʻliq, ota-ona bilan boʻlgan munosabatlar katta ahamiyatga ega emas. Yangi sharoit, qiyinchiliklarga moslashishi boshqa tengdoshlarininkidan koʻra yuqori. Ular ijtimoiy munosabatlarga koʻproq koʻnikkan, oilada adaptatsiya yuqori, oʻzlarini nazorat qilish xususiyatlari ham yuqori. Emotsional holatlari barqarorligi bilan ajralib turadi. Juda yuqori aqliy salohiyatga ega yoshlarning ijtimoiy adaptatsiyasi boshqalarnikidan pastroq. Iqtidorlilar qiyinchilik paytida oʻzlarini “qobigʻiga” kirishga moyil boʻlib introvertlik xususiyatni, Ilmiy ijodda esa ekstrovertlikni namoyon etishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Oʻzbekistonda inson kapitalini rivojlantirish muammosini hal etishda iqtidorli oʻquvchilarning psixologik xususiyatlarini, xususan, koping-

xulqini o'rganish, ularda samarali koping-xulqini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada psixodiagnostik metodlarni yaratish, mavjudlarini o'quvchilarning yoshi va milliy xususiyatlariga adaptatsiya qilish; psixokorreksion dasturlar yaratishni tavsiya qilamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi ORQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi qonuni"
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori
7. Frydenberg, E., & Lewis, R. (1991). Adolescent Coping Styles and Strategies: Is There Functional and Dysfunctional Coping? *Australian Journal of Guidance and Counselling*, 1, 1-8. <https://doi.org/10.1017/S1037291100002351>
8. Lazarus, R.S. *Psychological Stress and the Coping Process*. New York, McGraw-Hill Book Co., 1966.
9. Maslow, A. H. (1987). *Motivation and personality* (3rd ed.; R. Frager, J. Fadiman, C. McReynolds, & R. Cox, Eds.). Addison Wesley.
10. Murphy, Lois, and Associates. *The widening world of childhood: Paths toward mastery*. New York: Basic Books, 1962.
11. Haq, Mahbub ul. *Reflections on Human Development*. New York: Oxford University Press. 1995.
12. Диденко Д. В. Человеческий капитал как фактор развития российской интеллектуалоемкой экономики В

компаративном контексте (историко-экономический анализ) //РАН. Институт социологии. Институт экономики. М. – 2015.

13. Корчагин Ю.А. Человеческий капитал. Определение // ЦИРЭ: Центр исследований региональной экономики. LERC: local economics research center <http://www.lerc.ru/?part=articles&art=3&page=24> (December, 2014)

14. Усмонов Б.Ш., Қодиров М.Қ., Элтазаров Ж.Д. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабоп рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. - 83 Б.

15. Хазова, С. А. Ментальные ресурсы субъекта в разные возрастные периоды : автореф. ... дис. докт. психол. наук : 19.00.13 / Хазова Светлана Абдурахмановна. - Кострома, 2014. - 540 с.

16. Холмухамедов М. Меритократия со школьной скамьи наращивает человеческий капитал. Экономическое обозрение №9 (249) 2020.

17. Максимова, Людмила Александровна, and Муаззам Тулкиновна Исакова. "ЧЕЛОВЕК КАК СУБЪЕКТ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОЦЕНКА ЖИТЕЛЯМИ УЗБЕКИСТАНА УРОВНЯ ВЛИЯНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ФАКТОРОВ НА ИХ ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ." *Стратегические ориентиры современного образования*. 2020.

18. Abdukadirova, Laura Yulbarsovna, and Eleonora Topvoldievna Mirzajonova. "The importance of reading competencies in the context of the “industry 4.0” industrial revolution." *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.1 (2021): 205-210.

19. Djuhonova, N. H. "PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEMS OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE." *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества*. 2020.

20. Laura, Abdukadirova. "THE MAIN APPROACHES TO THE STUDY OF THE DIFFICULT LIFE SITUATION IN SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).

21. Юлдашева, Махлиё Бахтиёровна, and Зарнигор Эргашова. "ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ АГРЕССИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ." *ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ* (2021): 318.